



“TASDIQLAYMAN”
Buxoro davlat universiteti
rektori _____ **O.X. Xamidov**

2023-yil «27» oktabr

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING 2023/2024 O‘QUV YILI
3 - YIG‘ILISH QARORLARI

2023-yil «27» oktabr
Soat 08:30

- Raislik qiluvchi:** – **O.X. Xamidov – Buxoro davlat universiteti rektori, kengash raisi**
- Qatnashdilar:** – Prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:

- O.X. Xamidov** Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan professor-o‘qituvchilarni taqdirlash

II. O‘quv jarayoni yo‘nalishi bo‘yicha:

O‘quv adabiyotlarni yaratish, xorijiy manbalarni sotib olish va tarjima qilish, adabiyot bilan ta‘minlanganlikni ta‘minlash va kredit-modul tizimi to‘g‘risida
M.A.Tursunov

ESHITILDI: M.A.Tursunov (o‘quv-uslubiy departament boshlig‘i) kengash a‘zolariga “O‘quv adabiyotlarni yaratish, xorijiy manbalarni sotib olish va tarjima qilish, adabiyot bilan ta‘minlanganlikni ta‘minlash va kredit-modul tizimi to‘g‘risida” ma‘lumot berdi.(ma‘lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

O‘quv adabiyotlarni yaratish, xorijiy manbalarni sotib olish va tarjima qilish, adabiyot bilan ta‘minlanganlikni ta‘minlash va kredit-modul tizimi to‘g‘risida o‘quv-uslubiy departament boshlig‘i M.A. Tursunov hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buxoro davlat universiteti professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘quv adabiyotlarining (darslik, o‘quv qo‘llanma) yaratilganlik holati qoniqarli deb hisoblansin.

3. BuxDU professor-o‘qituvchilari tomonidan har bir ta‘lim yo‘nalishi uchun fan dasturida keltirilgan xorijiy adabiyotlarni tarjima qilish masalasi kafedraning navbatdagi yig‘ilishida muhokama qilinib, professor-o‘qituvchi biriktirilsin hamda o‘quv yili oxiriga qadar tarjima qilingan o‘quv adabiyotlari ehtiyojdan kelib chiqib ARM ga taqdim qilinsin.

4. Kursda qolgan talabaning kredit modul tizimi bo'yicha Masofaviy ta'lim tizimida kurslarni tashkil qilish uchun dekanat tomonidan bildirishnoma, kafedra mudiri tomonidan fan kontentlari va resurslarni joylashtirish, fan o'qituvchisi tomonidan nazoratlarni tekshirish o'z vaqtida ta'minlansin.

5. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

Xorijiy tillar fanlar fakultetida o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot, moddiy texnik baza va xalqaro hamkorlik bo'yicha faoliyatini o'rganish to'g'risida
M.S.Sharipov

ESHITILDI: M.S.Sharipov (kafedra o'qituvchisi) kengash a'zolariga "Xorijiy tillar fanlar fakultetida o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot, moddiy texnik baza va xalqaro hamkorlik bo'yicha faoliyatini o'rganish to'g'risida" ma'lumot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Ishchi guruhi raisi M.S.Sharipovning "Xorijiy tillar fakulteti faoliyatini kompleks o'rganish" bo'yicha ishchi guruh axboroti ma'lumot sifatida qabul qilinsin.

2. 2023-yilda fakultetda o'quv jarayonlarni olib borish uchun me'yoriy va o'quv uslubiy hujjatlarini yangi o'quv yiliga tayyorligi xamda ularga mos ravishda o'quv yuklamalarning optimal taksimlanganligi, ukuv rejadagi barcha fanlarning professor o'qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'tishi darslar jadval asosida to'liq va sifatli o'tilayotganligi reytinglar esa amaldagi Nizom asosida o'tkazilayotganligi hamda ular natijalari elektron kaydnomalarda o'z vaqtida kayd etib borilayotganligi e'tirof etilsin.

3. Mutaxassislik kafedralarda olib borilayotgan o'quv va o'quv-uslubiy ishlarning bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida olib borilishi qoniqarli deb hisoblansin. Magistratura buyicha kafedradagi me'yoriy xujjatlar yuritilishida ayrim kamchiliklar tuzatilib talab darajasiga yetkazilsin va Xemis tizimida resurslarni joylashtirish ishlari yakuniga yetkazilsin (muddat. 1 xafta. mas'ul: kafedra mudiri va dars beruvchi ukituvchilari).

4. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda ko'rsatmalar tayyorlash, malakaviy amaliyotlarni tashkil etishda rejaga muvofiq ishlash hamda bitiruvchilar bandligini o'rganish bo'yicha ishlarni oxirigacha yetkazilsin. Professor o'qituvchilar shaxsiy ish rejalarini rasmiylashtirishda kamchiliklar tuzatalib, ilmiy ishlarni yanada yaxshilash uchun ilmiy unvon va darajasiz o'qituvchilari BuxDU ilmiy potentsiali yoki tayanch va yetakchi oliy ta'lim muassalari bilan xamkorlik shartnomalari asosida tadqiqot olib borishlari ta'kidlansin. 2024-yilda fundamental va innovatsion davlat grantlari olinishiga e'tibor qaratilsin (mas'ul fakultet dekani)

5. Ta'lim jarayonlariga jaxonning yuqori 500 talik reytingiga kiruvchi oliygohlarda ishlovchi yoki vatandosh professor o'qituvchilardan jalb etish ishlari yo'lga qo'yilsin. Ta'lim dasturlarini yukori 100 talik oliygohlar dasturlari bilan moslashtirib xorijdan talabalarni jalb etishga loyiq yangi bakalavriat qo'shma dasturlarni yoki magistratura mutaxassisliklarni ochish bo'yicha takliflar ishlab chiqilsin (muddat 1 oy. masu'l kafedralar)

6. Ushbu karor ijrosini nazorat kilish fakultet dekani zimmasiga yuklatilsin.

Tabiiy fanlar fakultetida o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot, moddiy texnik baza va xalqaro hamkorlik bo'yicha faoliyatini o'rganish to'g'risida
J.Yu.Ergashev

ESHITILDI: J.Yu.Ergashev (kafedra o'qituvchisi) kengash a'zolariga "Tabiiy fanlar fakultetida o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot, moddiy texnik baza va xalqaro

hamkorlik bo'yicha faoliyatini o'rganish to'g'risida" ma'lumot berdi.(ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Ishchi guruhi raisi J.Y.Ergashevning "Tabiiy fanlar" fakulteti faoliyatini kompleks o'rganish" bo'yicha axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mutaxassislik kafedralarda olib borilayotgan o'quv va o'quv-uslubiy ishlarning bakalavriat, magistratura ta'limi buyicha kafedradagi me'yoriy hujjatlar yuritilishida kamchiliklar tuzatilib talab darajasiga yetkazilsin. (Muddat. 10 ish kuni. Mas'ul: kafedra mudiri va dars beruvchi o'qituvchilar).

3. Professor o'qituvchilar shaxsiy ish rejalarini rasmiylashtirishda kamchiliklar tuzatalsin. (Mas'ul fakultet dekani)

4. Hisobotda keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish tegishliligi bo'yicha hamma kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash fakultet dekani zimmasiga, nazroat qilish esa o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

**Buxoro davlat universiteti huzuridagi
ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlarning faoliyati to'g'risida
N.I.G'aybullayeva**

Eshitildi: N.I.G'aybullayeva (ilmiy darajalar kengashlar kotibi) kengash a'zolariga Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlarning faoliyati to'g'risida axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlarning faoliyati to'g'risidagi axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitet huzuridagi ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlarr faoliyatlari qoniqarli deb topilsin.

3. Ilmiy darajalarga oid hujjatlarni, attestatsiya ishlarini "Ilmiy darajalar kompleks axborot tizim" orqali yuklash va jarayonlarini sifatli tashkil qilish yuzasidan Ilmiy kengashlar kotibi tomonidan maqsadli seminarlar tashkil qilinsin.

4. Ushbu qaror ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H.Rasulov zimmasiga yuklatilsin

**Magistratura va bakalavriat talabalarini
2022/2023 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli
Davlat stipendiyalariga tavsiya qilish to'g'risida
U.M.Xolikova**

Eshitildi: U.M.Xolikova (Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish sektori bosh mutaxassisi) kengash a'zolariga Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlarning faoliyati to'g'risida axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H.Rasulovning axboroti ijro uchun qabul qilinsin.
 2. Kengash a'zolarining tavsiyasiga ko'ra quyidagi talabalar Prezident hamda nomli davlat stipendiyalariga tavsiya etilsin.
 3. Respublika bosqichiga tavsiya etilgan talabgorlarning hujjatlarini stipendiya.edu.uz platformasiga yuklashni nazorat qilish va kengash qaroriga asosan respublika bosqichiga tavsiya etilgan talabgorlarning hujjatlarini tizim orqali respublika bosqichiga o'tkazish, Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish sektori bosh mutaxassisi U.M.Xalikova zimmasiga yuklatilsin.
-

Universitetda "9-dekabr – Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"ni nishonlashga tayyorgarlik ko'rish masalalari to'g'risida
Y.K.Quliyev

Eshitildi: Y.K.Quliyev (Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi) kengash Universitetda "9-dekabr – Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"ni nishonlashga tayyorgarlik ko'rish masalalari to'g'risida axborot berdi (ma'lumotnoma ilova qilinadi).

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Barcha fakultet dekanlari nazoratida belgilangan grafik asosida katta faollar zalida fakultetlararo "Korrupsiyadan xoli jamiyat sari" shiori ostida xalkaro korrupsiyaga qarshi kurash kuniga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazilsin. Muddat: 25-oktabrdan 15-noyabrgacha talabalarning tanlovlarga ishtirokini ta'minlash, 20-noyabrdan 1-dekabrgacha fakultetlararo tadbirlarni.

2. Fakultet dekanlari ishtirokida har bir kafedralarda "Odob-axloq kodeksi" va "Ichki tartib qoidalari", korrupsiyaga qarshi kurash muammolari (manfaatlar to'knashuvi, nepotizm, favoritizm, qarindosh urug'chilik, dars jarayonlarining buzilish holatlari, ta'magirlik holatlari)ni kayta muhokama qilib, foto bayonnomalari bilan "Komplayens nazorat" bo'limiga taqdim etilib, OAV va saytlarda yoritilsin. **Muddat: 20-noyabr.**

3. Ushbu qaror ijro nazorati Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Y.K.Quliyev zimmasiga yuklatilsin

Universitetda o'tkazilgan ochiq darslar monitoringi natijasi to'g'risida
Z.S.Nurov

Eshitildi: Z.S.Nurov (TSNQDB) kengash a'zolariga Universitetda o'tkazilgan ochiq darslar monitoringi natijasi to'g'risida ma'lumot berdi (ma'lumotnoma ilova qilinadi).

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. "Universitetda borayotgan o'quv jarayonlari monitoringi to'g'risida"gi Z.S.Nurovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Dars mashg'ulotlariga kelmagan yoki qoniqarsiz faoliyati bilan darslarni barbod qilayotgan professor-o'qituvchilarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari ko'rilsin hamda kafedra va fakultet yig'ilishlarida muhokama qilinsin.

3. Pedagog-xodimlarning dars qoldirish holatlari yuzasidan kafedra mudirlari va fakultet dekanlari tomonidan universitet rahbariyatiga, talabalarning darslarni qoldirish holatlari yuzasidan professor-o'qituvchilar tomonidan dekanatga o'z vaqtida ma'lumot

kiritishi ta'minlansin (muddat: muntazam, mas'ul: professor-o'qituvchilar, kafedra mudirlar, fakultet dekanlari).

4. Yuqorida muhokama qilingan muammolarni hal etish, dars jadvallarini shakllantirishni dekanatlar kesimida muvofiqlashtirish choralari ko'rilsin (O'quv-uslubiy departament).

5. Sababli va sababsiz o'tilmay qolgan darslarni zudlik bilan o'sha vaqtning o'zida dars jadvalidan olib tashlash va darsni qayta o'tish choralari ko'rilsin (Muddat: muntazam; Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha dekan muovnlari, kafedra mudirlari).

TURLI MASALALAR

3.1. Professorlik va dotsentlik unvoniga tavsiya qilish uchun professor - o'qituvchilarning attestatsiya ishi hujjatlarini OAKga yuborish to'g'risida

F.Nurulloyev

3.1. O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori lavozimida faoliyat yuritayotgan Toirova Guli Ibragimovnaning professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini O'zR OAK ga taqdim etish to'g'risida.

3.2. O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori lavozimida faoliyat yuritayotgan Yuldashev Dilorom Nigmatovnaning professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini O'zR OAK ga taqdim etish to'g'risida.

3.3. Jahon tarixi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Ergashev Jahongir Yunus o'g'lining dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini O'zR OAK ga taqdim etish to'g'risida.

3.4. Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Ro'ziyev Umar Muzafarovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini O'zR OAK ga taqdim etish to'g'risida.

3.5. Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Utayeva Feruza Xolmamatovnaning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini O'zR OAK ga taqdim etish to'g'risida.

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Yuqorida nomlari keltirilgan professor o'qituvchilar tavsiya qilingan ilmiy tegishli ilmiy unvonlarga tavsiya etilsin.
2. Talabgorlarning hujjatlarini 10 kun muddatda O'zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin.

3.2. Ilmiy ijodiy ta'til berish to'g'risida

F.Nurulloyev

3.2.1. Fizika kafedrasida o'qituvchisi Aminov Alijon Axtamovichga 2 oy muddatda ilmiy ijodiy ta'til berish to'g'risida.

3.2.2. Matematik analiz kafedrasida o'qituvchisi Latipov Hakimboy Mirzo o'g'liga 2 oy muddatda ilmiy ijodiy ta'til berish to'g'risida.

3.2.3. Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasida o'qituvchisi Salimov G'ayrat Muxamedovichga 4 oy muddatda ilmiy ijodiy ta'til berish to'g'risida.

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Yuqorida nomlari keltirilgan professor o'qituvchilarga ilmiy ishlarini yakunlash maqsadida ijodiy ta'til berilsin.

2. Talabgorlarning ijodiy ta'til davri uchun yo'l xaritasi tayyorlansin va shu asosida ishlar amalga oshirilsin (mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulov va talabgor).

3. Talabgorlar ijodiy ta'tildan qaytgandan so'ng kengashga o'rnatilgan tartibda hisobot taqdim etsin (mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulov va talabgor).

4. Mazkur qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

3.3. Doktorant (DSc), tayanch doktorant (PhD) va mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzularini tasdiqlash va ilmiy rahbar tayinlash to'g'risida
F.Nurulloyev

ESHITILDI: F.Nurulloyev (Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar faoliyatini boshqarish departamenti boshlig'i) – kengash a'zolariga Doktorant (DSc), tayanch doktorant (PhD) va mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzularini tasdiqlash va ilmiy rahbar tayinlash to'g'risida ma'lumot berdi.

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Tadqiqotchilarning tegishli ixtisosliklar bo'yicha (DSc) va (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya ishi mavzulari belgilangan tartibda tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchilar tegishli ixtisosliklar talablari asosida tayinlansin.

3.4. Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida dotsenti, t.f.f.d. (PhD), Bakayev Ilhom Izatovich rahbarligida tayyorlangan "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati bo'yicha milliy videoo'yin yaratish" mavzudagi amaliy loyihani ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan amaliy loyihalar tanlovining 77-turiga taqdim etish to'g'risida.
O.O.Sayfulloyev

ESHITILDI: O.O.Sayfulloyev (Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi) – kengash a'zolariga Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida dotsenti, t.f.f.d. (PhD), Bakayev Ilhom Izatovich rahbarligida tayyorlangan "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati bo'yicha milliy videoo'yin yaratish" mavzudagi amaliy loyiha to'g'risida ma'lumot berdi.

So'zga chiqdilar: H.I. Eshankulov (Axborot texnologiyalari fakulteti dekani, t.f.f.d. (PhD)) Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida dotsenti, t.f.f.d. (PhD), Bakayev Ilhom Izatovich rahbarligida tayyorlangan "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati bo'yicha milliy videoo'yin yaratish" mavzudagi amaliy loyihani ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan amaliy loyihalar tanlovining 77-turiga taqdim etish to'g'risidagi taklifni qo'llab-quvvatladi va so'z navbatini loyiha rahbariga berdi.

So'zga chiqdi: I.I. Bakayev (Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida dotsenti, t.f.f.d. (PhD), loyiha rahbari) kengash a'zolariga "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati bo'yicha milliy videoo'yin yaratish" mavzudagi amaliy loyiha to'g'risida quyidagilarni ma'lum qildi.

Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati bo'yicha milliy videoo'yin yoshlarni vatanparlik ruhida tarbiyalash va kasbga yo'naltirish hamda yoshlar o'rtasida kibersport

turlarini yanada rivojlantirish va keng ko'lamda ommalashtirish maqsadida milliy video o'yinlarni yaratish dolzar masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur o'yinda qahramonlar, jang sahnalari, harbiy taktika kabi mantiqiy elementlar neyron tarmoq algoritmlari, hatti-harakatlarni tanib olish texnologiyalari, 3D modellashtirish kabi yo'nalishlarning uyg'unligi asosida amalga oshiriladi. Sun'iy intellekt agentlari aniqligini oshirish uchun o'quv tanlama sifatida jang sahnalaridagi ob'ektlarni belgilab chiqish algoritmini tuziladi, sun'iy intellekt agentlari harakatlari, to'siqlarni aniqlash uchun mashinali o'qitish algoritmlarini ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi.

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorning va so'zga chiqqanlarning fikr-mulohazalariga asoslanib, muhokamadagi masala bo'yicha universitet kengashi

E'tiboringiz uchun rahmat, savollar bo'lsa, marhamat!

Kengash raisi: Ushbu masala bo'yicha kimda qanday takliflar bor, marhamat!

Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi O.O. Sayfulloyevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD), Bakayev Ilhom Izatovich rahbarligida tayyorlangan "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati bo'yicha milliy videoo'yin yaratish" mavzudagi amaliy loyihani ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan amaliy loyihalar tanlovining 77-turiga taqdim etilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosi nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

3.5. Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2023-2024 o'quv yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash bo'yicha.

A.T. Jo'rayev

ESHITILDI: A.T. Jo'rayev: (Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2023-2024 o'quv yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash bo'yicha axborot berdi.

2023-2024 o'quv yilida jami buyruq asosida 70 nafar **xorijlik** professor-o'qituvchilar taklif qilingan. Taklif etilganlar orasida kafedralarda (61 nafar), KOICA officida (2 nafar), Qo'shma ta'lim dasturlari doirasida (7 nafar) faoliyatini olib borgan. Xorijlik o'qituvchilar uchun soatbay ish haqi BuxDU byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan **har bir soat uchun 10-20 dollar** atrofida belgilandi. Taklif qilingan xorijlik o'qituvchilarning barchasi 90 foizdan ortiq qismi yuqori **1000 talikka kiruvchi OTMlardan** bo'lishi ta'minlangan. Xususan, Rossiya, Qozog'iston, Hindiston, Germaniya, Kanada, AQSH, Buyuk Britaniya, Slovakiya, Vetnam, Vengriya, Bolgariya, Malayziya, Janubiy Koreya dan taklif etilgan.

Mazkur kirib kelayotgan o'quv yilida **90 nafardan ortiq xorijlik olimlar** va mutaxassislarni universitetga jalb qilish rejalashtirilgan. Ularning tajribasidan ham universitetning ta'lim, ilm-fan, tashkiliy-boshqaruv va boshqa sohalarida foydalanish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyida (1-jadval) taklif etilishi nazarda tutilgan xorijiy professor-o'qituvchilarning taklif etilishi inobatga olish va fikr bildirishingizni so'raymiz.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z taklif va fikrlarini bildirishdi:

Kengash raisi O.X.Xamidov kengash a'zolaridan universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyat boshqaruvlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2023-2024 o'quv yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash bo'yicha haqidagi taklifini ochiq ovoz berish yo'li bilan qo'l ko'tarib tasdiqlab berishni so'radi.

Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab quvvatladilar.

Qarshi va betaraflar bo'lmadi.

Kun tartibidagi masalalar muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jo'rayevning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. Xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning ta'lim, ilm-fan, tashkiliy-boshqaruv jarayonlariga jalb etilishi universitetda ta'lim va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlansin.

3. Universitetga taklif etiluvchi xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning yuqori malakali bo'lishi shartligi ta'kidlab o'tilsin. Ularga to'lanadigan ish haqi soatbay, ishbay yoki lavozim hissasi asosida o'zaro kelishiladigan valyutada, O'zbekiston qonunchiligida belgilangan soliq va to'lovlar to'langanidan so'ng, to'g'ridan-to'g'ri naqd ko'rinishda yoki pul ko'chirish orqali mutaxassisning xorijda yoki O'zbekistonda ochilgan bank hisobraqamiga (plastik kartasiga) o'tkazib berilishiga ruxsat berilsin. Ish haqqi universitet kengashining 2022-yil 10-mart kengashining 2022/2023 o'quv yili o'quv yili 7-son yig'ilish bayoni asosida hisoblansin.

4. Professor-o'qituvchining kunlik, sutkalik, ikki tomonga aviachiptalarni sotib olish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son asosida qoplansin.

5. 1-jadvalda taqdim etilgan, dars berish maqsadida taklif etilishi belgilangan professor-o'qituvchilarga dars o'tishi uchun ruxsat berilsin. Darslarni o'z vaqtida tashkil etish va olib borish vazifasi fakultet o'quv ishlari bo'yicha dekan muovnlari va kafedra mudiriga yuklansin.

6. Ushbu qaror ijrosi Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor va Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor zimmasiga yuklansin.

3.6. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risida
M.A.Tursunov

ESHITILDI: M.A.Tursunov (o'quv-uslubiy departament boshlig'i) kengash a'zolariga "O'quv adabiyotlarni yaratish, xorijiy manbalarni sotib olish va tarjima qilish, adabiyot bilan ta'minlanganlikni ta'minlash va kredit-modul tizimi to'g'risida" ma'lumot berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'atining 2020-yil 9-avgustdagi «Yangi 2021-2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va dolzarb vazifalar haqida»gi 3/1-son Hay'at qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib,

universitet kengashi qarori asosida bakalvriat talabalariga 2023-yil 1-dekabr dan dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berilgan magistrlar ro'yxati

№	F.I.O.	Magistratura mutaxassisligi, lavozimi	Kafedra nomi	Stav-kasi
1.	Yusupova Nigina Djurayevna	Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar) bo'yicha mutaxassisligi 2-bosqich magistranti	Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi o'qituvchisi	0.5

Kengash raisi mazkur masalani kengash a'zolari hukmiga havola qildi.

Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab – quvvatladilar. Hamma rozi, qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

- O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayevning Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalvriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalvriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
- Ro'yxatda keltirilgan magistr larga 01.12.2023y. dan tegishli kafedradagi vakant soatlar hisobidan belgilangan tartib asosida dars soatlari ajratilsin.
- Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev zimmasiga yuklatilsin

Kengash kotibi



N.G.Dilova